NUTQDAGI IMO-ISHORA FE'LLARI VA ULARNING MA'NOVIY IFODALANISHI

Abduqahhorova Muattar Ma'rufjon qizi
TDYU huzuridagi Namangan viloyat
akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Namangan, O'zbekiston
abduqahhorovamuattar@gmail.com

Mizamova Narmina
TDYU huzuridagi Namangan viloyat
akademik litseyi 103-guruh o'quvchisi
Namangan, O'zbekiston
mizamovasaida5@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20522394

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi imo-ishora fe'llari va ularning paralingvistik vosita sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Ishda imo -ishoralarning nutq jarayonidagi kommunikativ vazifasi, tasdiq va inkor ma'nolarini ifodalash xususiyati, ko'p ma'nolilik jihatlari hamda milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, adabiy matnlar va og'zaki nutq namunalarida qo'llangan ishora fe'llari misollar asosida tahlil qilinadi. Imo-ishoralarning axborotni yanada tushunarli va ta'sirchan yetkazishdagi ahamiyati ilmiy asosda izohlanadi.
Kalit so'zlar: imo-ishora, paralingvistik vositalar, ishora fe'llari, noverbal muloqot, nutq jarayoni, ko'p ma'nolilik, milliy xususiyat, kommunikativ vazifa.

Аннотация: В данной статье рассматриваются глаголы жестов в узбекском языке и их роль как паралингвистических средств. Анализируются коммуникативные функции жестов в процессе речи, особенности выражения значений согласия и отрицания, их многозначность и национально-культурная специфика. На основе примеров из художественных текстов и устной речи раскрывается значение жестовых глаголов в передаче информации. Обосновывается их роль в повышении выразительности и эффективности коммуникации.
Ключевые слова: жесты, паралингвистические средства, глаголы жеста, невербальная коммуникация, речевой процесс, многозначность, национальная специфика, коммуникативная функция.

Annotation: This article examines gesture verbs in the Uzbek language and their role as paralinguistic means. The study analyzes the communicative functions of gestures in speech, their ability to express affirmation and negation, their polysemantic features, and their national-cultural characteristics. Examples from literary texts and spoken discourse are used to illustrate the functional significance of gesture verbs. The article highlights the importance of gestures in enhancing clarity, expressiveness, and communicative effectiveness.
Keywords: gesture, paralinguistic means, gesture verbs, nonverbal communication, speech process, polysemy, national specificity, communicative function.

Tilimizda fikrimizni faqatgina so'zlar yordamida emas, balki imo-ishoralar yordamida ham ifodalaymiz. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq so'zlar bilan birga imo-ishoralardan ham iborat bo'lsa, uzatilayotgan axborotning aynan ishoralar aks etgan qismi tushunarliroq va esda qolarli bo'ladi. Tildagi har bir ishora fe'llarining o'z ma'nosi bor va bu ma'no faqatgina paydo bo'lgan xalqning o'zigagina tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "boshini sarak-sarak qilmoq" iborasi afsuslanish ma'nosini bersa, hind xalqida bu "rozilik" ma'nosiga to'g'ri keladi. Rus xalqida bosh barmoqni yuqoriga kotarish "zo'r", "ajoyib " ma'nolarini ifodalasa, Bangladeshda bu ishora axloqsizlikni bildiradi. Tibetliklar begona shaxslarni ko'rganda salomlashish maqsadida tillarini ko'rsatsalar, xuddi shu ishora

mayyaliklarda donolikni, hindlarda g‘azabni, xitoyliklarda tahdidni, yevropa xalqlarida esa, masxaralashni ifodalaydi.

“Sulaymon ota “xo‘p” deya boshini og‘ir silkitdi”.[3, s.177] O‘lmas Umarbekov asaridan olingan ushbu misolda ham “bosh silkitmoq” ishora fe’li rozilik,tasdiq ma’nosida qo‘llangan.

Imo-ishoralar faqatgina ma’lum ma’no bildiribgina qolmay, tinglovchiga axborot berish vazifasini ham o‘taydi. Abdulhamid Nurmonov fikricha, so‘zlovchi tinglovchiga qarab pastki labning bir marta o‘ng yoki chapga burishi natijasida uning ma’lum yerdan chiqib ketishini [1, s. 174]yoki ikki labini tezda juftlash orqali tinglovchiga gapidan to‘xtashi haqida buyruq berish ma’nolarini ifodalaydi.

Iboralarga aylangan imo-ishora fe’llarimiz har xil ma’nolarni ifodalab,ko‘p ma’nolilik xususiyatini ham namoyon qiladi,jumladan, “Dugonam odamni shunday ahmoq qiladiki, ogohlantirib ko‘z qismasa men ham ishonib qolayozdim”. Ushbu gapda ko‘z qisib iborasi gapirilayotgan gap yol g‘onligini ifodalayotgan bo‘lsa, “Ular maktab davrlaridanoq bir-birlariga ko‘z qisishib yurishadi” , bu gapda esa, oshiq-ma’shuqlik ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Yana bosh egib fe’li ham nutqda qo‘llanganda ko‘p ma’noli bo‘lib, birinchi ma’nosi ,ya’ni o‘z ma’nosi boshini pastga qilmoq ma’nosini bildirsa, ikkinchi ma’nosi esa, bosh egmoq ya’ni ta’zim qilmoq, uzrini bildirmoq kabi ko‘chma ma’nolarda ham keng qo‘llaniladi. “Oldingizda hijolatdaman, deya boshini egdi ” mana shu gapda ham bosh egib fe’li aynan uzrini bildirganlik ma’nosida ishlatilgan.

Tilimizda uchraydigan ishora fe’llari tasdiq va inkor ma’nolarini ifodalashi bilan xarakterlanadi. Kallaning gorizontal harakati inkor ma’nosini bildirsa, vertikal harakati esa, ko‘proq tasdiq ma’nosini ifodalaydi. Jumaladan, Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasidan olingan quyidagi misolda ham ishora fe’li tasdiq ma’nosini ifodalab kelgan: “Muqaddas “yalt”etib yuzimga qaradi, boshini tez-tez silkitib tasdiqladi” .[2, s. 17]

Bilamizki, imo-ishoralar asosan, og‘zaki nutqda keng qo‘llanilib, ular so‘zlovchiga anchayin qulaylik tudirishi bilan birga,tinglovchi uchun ham ifodalanayotgan fikrni yanada tushunarliroq bo‘lishi uchun ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, imo-ishoralar, qo‘l harakatlari,mimikalar so‘zlarga nisbatan fikr ifodalashda vaqtni ham tejaydi, o‘ziga yarasha ta’sirchanlikni ham oshishiga yo‘l ochib beradi.

O‘zbek tilidagi faol so‘z turkumi hisoblangan fe’l tarkibiga kiruvchi nutqiy –ishoraviy fe’llar allaqachon xalq mulkiga aylanib ulgurgan, chunki ular hamma uchun birdek tushunarli bo‘ladi. So‘zlar shevalarda keskin farqlanishi mumkin ammo ishoralar bir mamlakatning qaysi hududida foydalanilishidan qat’iy nazar bir-biridan farqlanmaydi. Shu bilan birga, ayrim ishoraviy birliklar ma’nosi doimiy nutqiy birikmaga ayanib ulgurgan. Masalan, “ensasini qotirmoq” fe’li nutqda qo‘llanganda,norozilik, tushunmaganlik ma’nolarini ifodalaydi. “O‘qituvchining bergan topshiriqlarini ko‘rib, talabalarning ensasi qotdi”, yoki, “qoshini uchirmoq” fe’li ham o‘zbek tilida hol so‘rash, xushomad, maqtanish kabi ma’nolarni, “burnini jiyirmoq” birikmasi jirkanish, mensimaslik ma’nolarini bildiradi. Qo‘l harakatlari, yelka harakatlari, barmoqlar harakatlari , hattoki, nutq jarayonida tinglovchining o‘zini tutishi ham so‘zlovchiga ma’lum bir belgi vazifasini o‘taydi. “yelka qismoq” bilmaslik, bexabarlik ma’nosida qo‘llansa, qo‘lni biroz oldinga cho‘zib yoki ko‘tarib kaftni ochish qo‘lda imkoniyat yo‘qligi kabi ma’nolarda qo‘llanadi.

G‘arb tadqiqotchilari ishora harakatlari va o‘zaro nutq munosabatlarining bir necha usullarini ajratib chiqishgan, unga ko‘ra, aytib o‘tganimizdek, ishoralardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Jamiyatdagi shaxslarning 65 foizi axborot olishda imo-ishoralarga alohida e’tibor qaratadi.

Imo-ishoralarning qo‘llanilishi ma’lum ma’noda nutq uslublari bilan ham bog‘liq. [1, s. 176] Ommaviy axborot vositalari uslubi bo‘lgan publitsistik uslubning ayrim ko‘rinishlarida, masalan, televedeniya ko‘rsatuvlarida jurnalistlar imo-ishoralardan foydalanadi, bu esa, aytib o‘tganimizdek, axborotning samarali yetkazilishiga xizmat qiladi. Shu o‘rinda amerikalik bir muxbirning avtomobillarning yo‘l muzlashi tufayli halokatlari haqidagi yangilikni yetkazayotganda qilgan harakati e’tiborga molik, u yangiliklarni aytish mobaynida qo‘liga muz parchasini ushlab oladi va ko‘rsatuv yakunida muzni kameraga qaratib uloqtiradi. Bu harakat tomoshabinlar tomonidan qiziqish bilan kutib olingan.

Demak, tildagi paralingvistik vositalar hisoblangan imo-ishora fe’llari fikrlash va fikrni ifodalash uchun ma’lum ma’noda xizmat qiladi. Zero, ular tilimizda son jihatdan ko‘pni tashkil qilmasa ham qo‘llanilishiga ko‘ra, ayrim so‘zlarga qaraganda anchayin faol. Imo-ishoralar ham boshqa belgilar singari

axborot berish vazifasini bajaradi. Ishoralar hamma tilda ham keng o‘rinni egallayvermaydi, hatto tildagi funksiyasiga ko‘ra kambag‘al ham deyishimiz mumkin, lekin har bir ishora, mimika xoh katta bo‘lsin, xoh kichik bo‘lsin, ma’lumot almashinish jarayonida o‘ziga yarasha vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Nurmonov. “Tanlangan asarlar”. 1-jild. Toshkent. – B. 176
2. Odil Yoqubov. “Muqaddas”. – Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1963. – B.17
3. O`lmas Umarbekov. “Odam bo`lish qiyin”. – Toshkent: Yoshlar ijodi nashriyoti, 2000. – B. 177